



KOREYS VA O'ZBEK TILLARIDA AYOLNING XULQ-ATVORINI SALBIY
JIHATDAN TAVSIFLOVCHI MAQOLLAR

Noila Mirxamidova

Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti tayanch doktoranti

noilamirhamidova@gmail.com

<https://orcid.org/0000-0002-9516-5101>

Annotatsiya: *Mazkur maqolada koreys va o'zbek tillaridagi ayolning xulq-atvorini salbiy jihatdan tavsiflovchi maqollar tadqiq etilgan. Ayolning xulq-atvorini ifodalovchi maqollar lisoniy kamsitish jihatidan ayollarni hiylakor va yengiltak hamda ularni ishyoqmas, dangasa, ahmoq kishi sifatida tasvirlovchi maqollar singari semantik guruhlarga ajratib tahlil qilingan. Ushbu maqollarda ayolning xatti-harakati qoralangan bo'lib, ularda jamiyatning genderga asoslangan stereotipik tasavvurlari namoyon bo'ladi.*

Kalit so'zlar: *ayol, maqol, salbiy, xulq-atvor, obraz, gender stereotip.*

Maqol va matallarda ayol xulq-atvorining ijobiy va salbiy tomonlari namoyon bo'ladi. Ayollar bilan bog'liq maqollardagi ijobiy tomonlar, odatda, uning onalik, uy bekalik rollarini ta'kidlash orqali yuzaga chiqadi. Ayol obrazining salbiy tomonlari, asosan, ayol va erkak o'rtasidagi munosabatlar bilan bog'liq bo'lib, bu uning bir talay (sergap, injiq, yolg'onchi, ayyor, xavfli, befahm, nodon va boshqa) qusurlariga ishora qiladi. Bunday maqollar orqali erkaklar tabiiy ravishda ayollarning bo'ysunishini abadiylashtirish yoki yanada mustahkamlashga intiladi.

1. Ayollarni hiylakor va yengiltak deb kamsituvchi maqollar

Aksariyat lingvomadaniyatlarda ayolning xarakterini tasvirlashda tulki obrazidan keng foydalaniladi. Tulki obrazi, asosan, ayol kishining hiylakorligi, makkoraligini ifodalashga xizmat qiladi. Shu bois mazkur obraz maqollarda ham faol qo'llaniladi. Masalan:

여자가 늙으면 여우가 된다 [yeojaga neulg-eumyeon yeouga doenda]

Ayol qariganda tulkiga aylanadi.

Yoki:

여자는 사흘을 안 때리면 여우가 된다 [Yojanin sahiril an tterimyon youga tvenda]

Ayolni uch kun urmasa, u tulkiga aylanadi.

Bu o'rinda "ayollar xiyonat qilishga moyil bo'ladi" degan ma'no anglashiladi. Shu ma'nodagi maqollarni o'zbek tilida ham kuzatish mumkin:

Bir xotinning hiylasi qirq ehsakka yuk bo'lar.

Xotin so'zini qondirar, Er urug'idan tondirar¹⁰³.

¹⁰³ O'zbek xalq maqollari. – Toshkent: Sharq, 2005. – B. 45; 86.



O'zbek o'g'zaki ijodi an'analarida ayollar odamni yo'ldan ozdirishga qodir xavfli mavjudotlar sifatida ham ko'z oldimizda paydo bo'ladi. Buni quyidagi maqol vositasida ko'rishimiz mumkin:

– G'unajnn ko'zini suzmasa, buqacha ipinn uzmaydi. Sen ablah ko'z suzmasang, bu yaramas bunchalik suykalmasdi¹⁰⁴.

Mazkur maqol ayollarga jinsiy aloqa obykti sifatida qarash va ularni yengiltak deb kamsitishning yaqqol namunasidir.

Aytilganlar bilan birga, ayolga ishonchsizlik ham erkaklarning odatiga aylanganini ko'rish mumkin. Masalan:

1. It – vafo, xotin – jafo.
2. Xotinning zo'ri – erning sho'ri.
3. Eri eshikdan chiqsa, xotin teshikdan chiqar.
4. Qamchi berma yaxshi bo'lsa otingga, Ishonmagin miltiq bilan xotinga¹⁰⁵.

Ayolni andishasizlikda ayblab, unga dakki berish ma'nosida esa Xotin erka bo'lsa, eriga serka bo'lar maqoli ham qo'llaniladi.

2. Ayollarni ishyoqmas, dangasa, ahmoq kishi sifatida tasvirlovchi maqollar

Ayollarga ishyoqmas, dangasa deb salbiy munosabat bildirish esa quyidagi maqollarda o'z aksini topganini ko'rish mumkin:

여자 셋이 모이면 접시가 깨진다 [yeoja sesi moimyeon jeobsiga kkaejinda]

Uch ayol yig'lsa, idish-tovoq sinadi.

O'zbek tilida: To'rt xotin bir bo'lsa, kasbi o'lan aytish¹⁰⁶.

Qayd etilgan har ikki tildagi maqollarda ayollarning bir joyga yig'ilishi shovqin, mashmasha, tartibsizlik va g'iybatchilikni yuzaga kelishi bilan izohlanadi. Shuningdek, aksariyat maqollarda "uch" va "to'rt" sonlari ko'plik ma'nosini ifodalab, guruh va jamoani tamsil etadi.

Ko'rinadiki, har ikki tildagi mazkur maqollar zamirida "ayollar bir joyga to'plansa, tinchlik buziladi" degan stereotipik tasavvur yotadi. Shu bois mazkur maqollardan ayollarga nisbatan lisoniy kamsituvchi baholash anglashiladi.

"Ayollar ko'p ishlarda shoshib, kalta o'ylab ish qilishadi" degan fikrni quyidagi maqol misolida kuzatish mumkin:

– Bari bir xotinsan-da! – Bobom jahli chiqib ketdi shekilli, ovozini baralla qo'yib, chiyilladi. – **Xotin kishining sochi uzun, aqli qisqa bo'ladi.** Seni bo'ying ham, soching ham, aqling ham kalta! Xo'sh, ma'lim bo'lsa nima qipti! Shoxi bormi? Qizingni oldidan o'tdingmi?¹⁰⁷

¹⁰⁴ Ахмад С. Уфқ. III жилдлик. I Жилд. Ҳикоялар. – Тошкент: Фафур Гулом номидаги Адабнёт ва санъат нашрнети, 1976. – Б. 23.

¹⁰⁵ O'zbek xalq maqollari. – Toshkent: Sharq, 2005. – B. 242, 255, 332, 441.

¹⁰⁶ O'zbek xalq maqollari. – Toshkent: Sharq, 2005. – B. 36.

¹⁰⁷ Хошимов Ў. Икки эшик ораси. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2016. – Б. 161-162.



TANQIDIY NAZAR, TAHLILY TAFAKKUR VA INNOVATSION G'OYALAR



Gender stereotipiga asoslangan “Sochi uzun, aqli kalta” maqoli ayollarni intellektual jihatdan kamsitishda keng qo‘llanilib, tarixiy-patriarxal qarashlarni aks ettiradi. Bunday qarashga ko‘ra ayol kishi ko‘proq tashqi ko‘rinish jihatidan baholanib, uning faqat uy-ro‘zg‘or ishlari bilan shug‘ullanishi maqsadga muvofiq ko‘rilgan.

Aqli otini maqtar, ahmoq – xotinini¹⁰⁸.

Bu maqolda “ot” va “xotin” obrazlari qarama-qarshi qo‘yilgan bo‘lib, “ot” obrazi erkaklik, kuch-qudrat, mehnatga layoqat, boylik va obro‘ timsoli sifatida kelgan. Aksincha, “xotin” obrazi orqali esa ayol maqtashga arzimaydigan “buyum” sifatida talqin qilingan. Patriarxal dunyoqarashni aks ettiruvchi ushbu maqol orqali ayolni ochiqdan-ochiq maqtash erkakka xos xislat emasligi uqtirladi.

Yoki:

Baytal chopib, poyga ololmas¹⁰⁹.

Mazkur maqol baytal, ya‘ni urg‘ochi ot yugurgani bilan poygada g‘olib bo‘lolmaydi degan mazmuni ifodalaydi va undan “ayol boshlagan ish qoniqarli natijaga olib kelmaydi” degan ma‘no anglashiladi. U, odatda, ayolning ijtimoiy, aqliy, jismoniy va boshqa imkoniyatlarini past baholovchi stereotipik maqol hisoblanadi.

Umuman, koreys va o‘zbek paremiologik fondida ayol kishini salbiy baholovchi o‘xshash ko‘plab maqol va matallar mavjud. Koreys va o‘zbek xalq maqollarida aks ettirilgan madaniy qadriyatlarning bir xil ekanligini ta‘kidlash mumkin. Har ikki tilning maqol va matallarida ayol ko‘p gapiradigan, nodon, ahmoq, ayyor, yengiltak, ishonchsiz, andishasiz, erka, ishyoqmas, qolaversa, erkaklarni mohirona manipulyatsiya qilidigan obraz sifatida namoyon bo‘ladi.

Ayolning xulq-atvorini salbiy jihatdan tavsiflovchi maqollar tahlili shuni ko‘rsatadiki, koreys va o‘zbek dunyoqarashida ayol narsa, buyum, erkakning mulki sifatida qaraladi. Ayol erkaklarga qaram bo‘lgan quyi mavjudot hisoblanadi. Shuning uchun ayol hayvonlar bilan taqqoslanadi va bu taqqoslash ikkala madaniyatda ham o‘xshashdir. Binobarin, ayol aksariyat maqollarda tovuq, tulki, serka, g‘unajin va h.k. hayvonlar bilan taqqoslanadi. Bunday noto‘g‘ri munosabat uzoq vaqt davomida jamiyatda erkaklar hukmronlik qilgan patriarxal tizim kuchiga bog‘liq bo‘lgan.

¹⁰⁸ O‘zbek xalq maqollari. – Toshkent: Sharq, 2005. – B. 123.

¹⁰⁹ O‘zbek xalq maqollari. – Toshkent: Sharq, 2005. – B. 200.

